

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkil qilinadigan tanlov NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Nizom Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tashkil qilinadigan tanlovni (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Tanlovning asosiy tashkilotchisi “Vatandoshlar” jamoat fondi (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) hisoblanadi hamda zaruratga ko‘ra boshqa hamkor tashkilotlar jalb etilishi mumkin.

1.3. Tanlov ushbu Nizom asosida ochiq va shaffof tarzda tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

II. TANLOVNING MAQSADI

2.1. Jamiyatda yoshi ulug‘ insonlarga hurmat va ehtirom tuyg‘ularini mustahkamlash, ularning hayotiy tajribasi va donishmandligini keng targ‘ib etish;

2.2. Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan keksalarni e‘zozlash, ularga e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish madaniyatini rivojlantirish;

III. TANLOV SHARTLARI

3.1. Tanlov quyidagi yo‘nalishda o‘tkaziladi:

- “Mening qahramonim” chellenji

Bunda:

- Ishtirokchilar o‘zlari uchun qahramon deb bilgan inson (bobosi, buvisi yoki boshqa yoshi ulug‘ inson) haqida storytelling (hikoya) formatida video tayyorlaydi;

- Videoda ushbu insonning hayoti, boshidan kechirgan sinovlari, qadriyatlarini va ishtirokchi uchun nima sababdan qahramon ekani ta’sirli va mazmunli tarzda yoritilishi lozim;

- Video ijodiy yondashuv asosida, suhbat, lavhalar, eski suratlar yoki xotiralar bilan boyitilishi mumkin;

- Ishtirokchi videoni yaratishda raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt vositalaridan foydalanishi mumkin (masalan, montaj, ovoz berish, vizual effektlar va boshqalar);

- Asosiy e‘tibor — insoniy qadriyatlar, hurmat va e‘zoz ruhini yetkazishga qaratiladi.

IV. TANLOV TASHKIL ETISH TARTIBI

4.1. Tanlov Fondning Telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali onlayn formatda o‘tkaziladi.

4.2. Fondga kelib tushgan ijodiy ishlar saralanadi hamda Fondning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtiriladi.

V. TANLOVDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

5.1. Tanlovda xorijda istiqomat qilayotgan barcha vatandoshlar ishtirok etishlari mumkin.

5.3. Tanlovga ijodiy ishlar Fondning vatandoshlar.uz/ijod sayti orqali qabul qilinadi.

VI. TANLOVNI TASHKIL ETISH MUDDATLARI

6.1. Tanlovga ijodiy ishlar 10-maygacha (shu kuni ham) qabul qilinadi.

6.2. “Mening qahramonim” chellenji yo‘nalishida qabul qilingan ijodiy ishlar 11-may kuni hakamlar hay’ati tomonidan saralanadi va tanlov g‘oliblari 12-may kuni e‘lon qilinadi.

VII. IJODIY ISHLARNI BAHOLASH TARTIBI

7.1. “Mening qahramonim” yo‘nalishi bo‘yicha kelib tushgan ijodiy ishlar tashkil etilgan komissiya tomonidan 50 ballik baholash tizimida baholanadi.

Tanlov yo‘nalishi	Baholash (50 ball)
Mening qahramonim	Videoning mazmuni tanlov mavzusiga mos kelishi (10 ball)
	Videoning mavzusi asosida g‘oyaning ochib berilishi, g‘oyaning asar oldiga qo‘yilgan vazifalariga mosligi (10 ball)
	Mavzuni yoritishda o‘ziga xos ijodkorlik xususiyatlari ifoda etilganligi va kreativ yondashilganligi (10 ball)
	Ijodiy ishning kompozitsion joylashtirish mahorati (10 ball)
	Ijodiy ishdagi texnika mahorati (ranglar bilan ishlash, yorug‘lik va soyalarni ishlash mahorati) (10 ball)

7.4. “Mening qahramonim” yo‘nalishi bo‘yicha kelib tushgan ijodiy ishlarga ommaviy ovoz berilmaydi.

VIII. G‘OLIBLARNI TAQDIRLASH TARTIBI

8.1. Tanlov bitta yo‘nalish doirasida tashkil etilib, mazkur yo‘nalish bo‘yicha 1-, 2- va 3-o‘rin g‘oliblari aniqlanadi.

Tanlov yo‘nalishlari	1-o‘rin	2-o‘rin	3-o‘rin
Mening qahramonim	Kompyuter	Planshet	Telefon

8.3. Tanlovda qatnashgan barcha ishtirokchilarga Fond nomidan elektron sertifikatlar taqdim etiladi.

8.4. Kelib tushgan eng sara ijodiy ishlar Fondning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga joylashtiriladi.

IX. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

9.1. Tanlov tashkilotchilari ijodiy ishlardan reklama va targ‘ibot maqsadlarida foydalanish huquqini saqlab qoladi.

9.2. Tanlovni o'tkazish tartibiga zarur hollarda tegishli o'zgartirishlar kiritish huquqi tashkilotchilarda saqlanadi.

9.3. Tanlov davomida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida talqin qilinib bartaraf etiladi.